

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16908224>

DAVLAT BYUDJETI HISOBIDAN SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AHAMIYATI

Zarif Oripovich Axrorov

i.f.d., professor v.b., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, e-mail:

z.akhroroff@gmail.com

Jasmina Jasurovna Baxtiyorova

talaba, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda davlat ishitirokining nazariy va uslubiy jihatlari, bugungi kunda sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili va sog‘liqni saqlash tizimini davlat budjetidan moliyalashtirishni takomillashtirish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash, moliyalashtirish, davlat budjeti, islohot.

Kirish

Bugungi kunda ijtimoiy soha taraqqiyoti dunyo mamlakatlari barqarorligining muhim bo‘g‘iniga aylanib ulgurdi. Xususan, ko‘plab davlatlarda ijtimoiy soha xarajatlari byudjet xarajatlarining salmoqli qismini tashkil qiladi. Vaholanki, ijtimoiy sohalarni, jumladan, respublikamizda tibbiyot muassasalarini moliyalashtirishni yangicha usullarini joriy qilish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholi sog‘ligi darajasi ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirish, o‘rtacha umr ko‘rish davriyligini uzaytirish hamda yakuniy natijalarga bo‘lgan me‘yorlarni ishlab chiqish ayni kundagi dolzarb masalalarga aylandi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoev “... xalqimiz genofondini mustahkamlash maqsadida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilash va ko‘lamini kengaytirish lozim. Bizning bosh maqsadimiz – nafaqat kasallikni davolash, balki uning oldini olishdan iborat. Tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish jarayonida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini kengaytirish lozim. Davlat tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar doirasi belgilanib, pullik va bepul davolanish o‘rtasida aniq chegara o‘rnatilishi kerak» - deya ta’kidlab o‘tdi [1].

Mamlakatning istiqboli, kuch-qudrati, jahon hamjamiyati oldidagi obro‘-e’tibori va salohiyati fuqarosining, sog‘ligi oilaviy tinch-totuvligi, moddiy va ma’naviy barkomolligiga bog‘liq. Respublikamizda mustaqillik qaror topganidan keyingi yillarda fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoyalash, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlashga yo‘naltirilgan muayyan ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy iqtisodiy yangilanishlar jarayonida sog‘liqni saqlashni isloh qilish alohida o‘rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ta’kidlash lozimki, sog‘liqni saqlash sohasiga investisiyalarni yo‘naltirish borasida ham qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, inson kapitalini rivojlantirish modellari investisiyalarni amalga oshirish miqyosi bo‘yicha ham o‘zaro farqlanadi.

Masalan, amerika, yapon va shved modellari shular jumlasidandir.

Bu borada, N. Kabanova o'zining tadqiqotida inson kapitaliga investisiyalarni moliyalashtirish an'anaviy shaklida davlatning roli muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, deb ta'kidlab o'tadi [2].

Tizimni moliyaviy ta'minlash borasida davlat byudjetining o'ziga xos jihatlari mavjud ekanligi tadqiqotlarda o'z aksini topib borgan. O'z navbatida, A.Oganesyan ham sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish manbalarini uchga ajratadi, xususan xususiy, majburiy sug'urta va davlat byudjeti mablag'lari shular sirasiga kiradi. Jumladan, tibbiy xizmatlarning boshqa tovar va mahsulotlar kabi iste'mol hajmini mavjud talab va takliflar asosida insonlarning to'lov qobiliyatini inobatga olgan holda belgilashning imkoni mavjud emasligini qayd etadi. SHu boisdan, tibbiy xizmatlarni taqdim etishda qulaylik va tenglik prinsipi asosida iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy adolat yuzasidan amalga oshiriladi, degan xulosaga keladi [3].

SHu bilan birga, davlat byudjetining o'ziga xos ahamiyati davlat bajarishi lozim bo'lgan funksiyalarida ham o'z aksini topadi. "Davlat aynan byudjetning taqsimlash funksiyasiga tayanib, ixtiyoridagi markazlashgan moliya resurslarini shakllantiradi va uning yordamida umumdavlat iste'mollarini pul resurslari bilan ta'minlaydi. Moliyaviy resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida sog'liqni saqlash sohasi muassasalari byudjetdan moliyalashtiriladi" [4].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti o'z faoliyatini olib borishi davomida quyidagilar uchun mablag'lar ajratmoqda (umumiy byudjetga nisbatan, foizda) [5]:

- tibbiy-sanitariya tadbirlarini amalga oshirish maqsadida (53 foiz);
- a'zo mamlakatlarni samarali qo'llab-quvvatlashga (21 foiz);
- sog'liqni saqlashda turli dasturlar va tibbiy vositalarni etkazib berish (13 foiz);
- sog'liq determinantlariga (11 foiz);
- zaxira fondi (2 foiz).

Ko'rinib turibdiki, tibbiy-sanitariya xizmatlarini amalga oshirishda xalqaro amaliyotda ham xarajatlarning salmoqli ulushi xususiy bo'lmagan manbalarining hissasiga to'g'ri kelishi ko'zga tashlanadi.

Butunjahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra yuzaga kelayotgan kasalliklarning 50 foizi kishilarning yashash tarzi sababli bo'lsa, 15-20 foizi esa tibbiyot muassasalarining faoliyatiga bog'liq holda yuzaga kelmoqda [6].

Fikrimizcha, sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishga nisbatan berilgan yondashuvlarning o'zaro farqlari ko'rinsa-da, ularning g'oyaviy jihatlari o'zaro uyg'unlikni aks ettirishini qayd etish mumkin.

Mazkur masala O.Rayimberdievaning tadqiqot ishida sog'liqni saqlash muassasalari moliyaviy resurslari tarkibi va manbalarini shakllantirish tartibi, ularni rejalashtirish, sarflanishini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan hamda sog'liqni saqlash tizimini moliyaviy jihatdan ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlari aniqlangan [7].

G.Qosimova ishida esa, davlat byudjetidan ijtimoiy-madaniy tadbirlarini moliyalashtirish jarayonida sog'liqni saqlash sohasi xarajatlarini qoplash masalalari tadqiq etilgan [8].

A.Sultonova ilmiy tadqiqotida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag'lari o'rni xususida xalqaro tajribalar o'rganilgan. YA'ni, tizim moliyalashtirilishini boshqarishning xorijiy tajribalari joriy etilishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [9].

O'.Rajabov tomonidan o'rganilgan ijtimoiy xizmatlar sohasida, jumladan, sog'liqni saqlash tizimida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini tahlil qilingan va sohani moliyalashtirishda byudjetdan tashqari mablag'lar manbalarini kengaytirishga ustuvorlik berish asoslangan [10].

M.Turtaev ilmiy ishida aholining tibbiy xizmatlar bilan ta'minlanishida tibbiyot muassasalarining birlamchi bo'g'inlari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarni shakllantirish hamda ularni moliyaviy ta'minlash masalalarini hal etishda marketingni tashkil etishning muhim jihatlarini asoslab berilgan [11].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlilning analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslama kabi an'anaviy usullardan foydalanildi. Iqtisodchi olimlarning dehqonchilikni rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy qarashlari tahlil qilindi va natijalari asosida xulosalar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar

Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda institusional va iqtisodiy stimullarning evolyusion o'zgarishi natijasida yuqori maqsadlarga erishishda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash zarurati kelib chiqmoqda. O'z o'rnida sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish amaliyotining davlat mablag'lari hisobidan amalga oshirilishida uning maqsadi, funksiyalari, tamoyillari va mablag'larni taqsimlash metodlarini aniq tarzda nazariy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Sog'liqni saqlash tizimi ijtimoiy sohaning bir bo'g'ini sifatida, o'z funksiyalarini amalga oshirishda muassasalarining iqtisodiy munosabatlari va moliyaviy ta'minotining qay darajada shakllanganligi bilan uning istiqboli va rivojlanishi aks ettiriladi. Demak, sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish siyosati mazkur tizimni yanada takomillashishiga turtki beruvchi asosiy omillardan biridir.

Sog'liqni saqlash tizimining ijtimoiy vazifasidan kelib chiqqan holda uni tashkil qilish va moliyalashtirishda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:

- Qulay tibbiy yordam, ya'ni jamiyatning har bir a'zosining ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy imkoniyatlaridan qat'i nazar tibbiy yordamdan foydalanish sharoitini yaratilishi;

- Tibbiy yordamning sifati (ilmiy, texnologik va ijtimoiy sifati-aholini tibbiy xizmatga jalb etilish darajasi);

- Tibbiy xizmatlar haqida axborotlar (ularning to'liq ro'yxati asosida narxlar) berish, xususan bepul tibbiy xizmatning hajmi va turlari bo'yicha aniq ma'lumotlari etkazish;

- Bepul tibbiy xizmatdan foydalanishi mumkin bo'lgan shaxslar toifasi va imtiyozli reseptlari bo'yicha dorilar beruvchi dorixonalar ro'yxati.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan tamoyillar to'g'ri tatbiq etgan holda tashkil etilishi ko'p jihatdan byudjet hisobidan moliyalashtirilishiga, mablag'larni oqilona tarzda natija uchun sarf etilishi albatta ko'rsatilgan faoliyat turlarining olib borilishiga va maqsadli yo'naltirilishiga chambarchas bog'liq.

Sog'liqni saqlash tizimi moliyaviy ta'minotini etarlicha moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishini ko'p jihatdan jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy holatiga bog'liq. Chunki davlat iqtisodiy jihatdan qancha baquvvat bo'lsa, sog'liqni saqlash tizimi uchun shuncha ko'p mablag' ajratiladi. Jamiyatning ijtimoiy holati yaxshi bo'lsa qo'shimcha pullik xizmatlarni sotib olish uchun imkoniyat yaratiladi.

Sog'liqni saqlash tizimi hududlarga quyidagicha ta'sir o'tkazadi:

- iqtisodiy tomondan hudud aholisi o'rtasida kasallikning kamayishi o'z navbatida hududga qo'shimcha moliyaviy resurslarini oqimi uchun imkoniyat yaratadi;
- demografik tomondan sog'liqni saqlash muassasalarini normal ishlashi aholi ko'payishiga, uni doimiy yashash joyidan ketib qolmasligi uchun sharoit yaratadi;
- ijtimoiy tomondan hududda yashash va hayot kechirish sifati yaxshilanadi, sog'lom komil insonlar yashaydigan hududda jinoyatchilik darajasi pasayadi;
- madaniyat sohasida insonlarning salomatligi sifat jihatidan yuqori bo'lgan hududlarda madaniyat rivojlanadi, odamlarda kitob o'qishga, san'atga, teatr va kinoga qiziqish ortib madaniy hayot faollashadi.

O'z navbatida hududlar ham sog'liqni saqlash tizimiga o'z ta'sirlarini o'tkazadilar, chunki tizim hudud aholisi manfaatlarini hisobga olish lozim. Sababi hudud aholisini yangi-yangi tibbiy xizmatlarga bo'lgan buyurtmalarini kamayishi tibbiyot muassasalarini daromadlarini pasayishiga sabab bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitiga o'tish natijasida sog'liqni saqlash sohasi tijorat asosidagi hisob-kitoblarga asta-sekinlik bilan o'ta boshlaganligi sababli o'z faoliyatida moliyaviy siyosatni olib borishda katta erkinliklarga ega bo'ldilar. Ular bugungi kunda bozorga qanday xizmatlarni taklif qilishni o'zlari mustaqil belgilaydilar. Bajarayotgan xizmatlar uchun baholar va ish sifati sohadagi samaradorlikka, muassasalarning obro'siga va iqtisodiy faoliyatiga katta ta'sir o'tkazadi. SHuningdek, sog'liqni saqlash tizimi faoliyati jamiyat hayotiga, davlatning iqtisodiy va siyosiy holatiga birinchi darajali ta'sir o'tkazadi, shuning uchun xam soha bevosita qattiq nazorat ostida turadi. SHuning uchun ham soha davlat tomonidan qat'iy belgilangan me'yorlarga rioya etadi, hamda tijorat faoliyatida ma'lum chegaralanishlar mavjuddir (ma'lum toifa aholi uchun ko'rsatilgan xizmatlar davlat byudjeti tomonidan qoplanib boriladi).

Sog'liqni saqlash tizimini davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirish davlatning iqtisodiy va moliyaviy siyosatidan kelib chiqqan holda byudjetni tuzish va bajarish bo'yicha yagona tartibga asoslanadi.

Ma'lumki, har qanday demokratik davlatda fuqarolar sog'ligi masalasi yuqori o'rinni egallaydi. Xususan, bizning mamlakatimizda ham sog'liqni saqlash nafaqat ijtimoiy sohaning balki, butun iqtisodiyotning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Zero, ushbu sohaga hukumat tomonidan yo'naltirilayotgan e'tibor hamda moddiy ta'minotning yuqoriligi mamlakatning kelajagini, oilalarning tinch-totuvliligini, fuqarolarning ma'naviy barkamolligi, shuningdek, aholi salomatligi davlatning xalqaro obro' e'tiborini belgilab beradi.

Mamlakatimizda bu kabi tibbiyot muassasalari ham fuqarolarning ayrim guruhlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatadilar. Bunday xizmatlarning hajmi, ro'yxati, ularni ko'rsatish tartibi hamda kompensatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi hamda buning evaziga hukumatimiz tomonida munosib ravishda imtiyozlar beriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sog'liqni saqlash tizimi qonun hujjatlari hamda amaliy faoliyat shakliga mos ravishda ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Davlat davolash-profilaktika muassasalari
2. Xususiy davolash-profilaktika muassasalari

Bugungi kunda mustaqil vatanimizda boshqa tarmoqlarda bo'lgani kabi sog'liqni saqlash borasida ham xususiylashtirish va xususiy mulk egalari faoliyatini qo'llab quvvatlash tizimli ravishda amalga oshirilib kelinmoqda. Buning natijasida esa, xususiy tarmoqning ulushi va tibbiyot sohasidagi o'rni kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, 2017 yil 1-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni rivojlantirishga har tomonlama ko'maklashish, xususiy tibbiyot muassasalarining aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishi uchun zarur sharoit yaratish maqsadida qabul qilindi. Ushbu qarorda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytgacha xususiy tibbiyot muassasalariga 177 turdagi tibbiy xizmatlarning atigi 50 tasi bo'yicha xizmat ko'rsatishga ruxsat etilgan bo'lib, qolganlari taqiqlangan edi. Endilikda esa, ular deyarli barcha xizmatlarni amalga oshira olishadi.

Ruxsat etilgan tibbiy xizmat turlariga kardiojarrohlik, neyrojarrohlik, mikrojarrohlik, onkologiya, anesteziologiya va reanimatologiya, gelmintologiya, intervitsion kardiologiya, immunobiologik va immunoferment tashxis qo'yish, qon-tomir, torakal va abdominal jarrohlik va tibbiyot sohasida talab yuqori bo'lgan boshqa yo'nalishlar kiritildi.

SHuningdek, qarorda keltirilishicha, xususiy tibbiyot muassasalari 2022 yilning 1-yanvariga qadar barcha turdagi soliqlar va majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etildi. Bo'shagan mablag'lar ularni zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash, ularga servis-texnik xizmat ko'rsatish, tibbiyot maqsadlari uchun ehtiyot qismlar, inventar va boshqa buyumlar xarid qilish, yangi bino va inshootlarni qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilishga maqsadli yo'naltiriladi.

Unga asosan 2017 yil 1-maydan boshlab sog'liqni saqlash sohasida kichik korxonalar xodimlarining yillik o'rtacha cheklangan sonini 25 kishidan 100 kishigacha ko'paytirish belgilangan.

Soliq imtiyozlari taqdim etilishi natijasida bo'shaydigan mablag'lar hisobidan xususiy tibbiyot muassasalarining aholi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish va tasdiqlash vazifasi topshirildi.

YUqorida keltirilgan qaror sharhida ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida keng qamrovli islohatlar amalga oshirilmoqda. Bu borada alohida ta'kidlash lozimki, bu sohadagi islohotlarni asosiy negizi aholiga yuqori sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish barobarida, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo'llab

quvvatlash hisoblanadi.

SHu o'ringda yana bir bor davlat sog'liqni saqlash sohasiga e'tibor qaratsak. Zero, dissertasiya ishimiz qamrovi bu sohaning yuqoridagi ikki tarmog'ini ham birdayin qamrab olishiga qaramasdan, asosiy urg'u aynan davlat sog'liqni saqlash sohasiga tushadi desak mubolag'a bo'lmas. Ushbu sohada obekt inson sog'lig'i muhofazasi bo'lganligi sabab ham, mamlakatimizda ushbu tarmoqning kattagina qismi hali-hanuz hukumat nazoratida va byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi. Ushbu sohani moliyalashtirish boshqa sohalardan birmuncha farq qiladi.

SHuningdek, yuqordagi fikrlarimizdan oydinlashib ulgurgan, aynan sohaga tegishli bo'lgan o'ziga xos maqsad va vazifalar ham mavjud bo'lib, ushbu maqsadlar respublika doirasida hamda hududlar doirasida qonunan belgilangan.

Ushbu maqsad va vazifalarni keyingi sahifalarimizda tahlil etilgan tuman tibbiyot birlashmasi misolida yuqoridagi rasm asosida ko'rsatishimiz mumkin. SHuningdek, yuqoridagi qarorda tuman yoxud shahar tibbiyot birlashmalarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan.

- aholiga sifatli dastlabki ambulatoriya-poliklinika yordami ko'rsatish;
- dastlabki shoshilinch, kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishni, bemorlarni statsionar davolashni, shuningdek qishloq vrachlik punktlariga, oilaviy poliklinikalarga, tuman (shahar)ning boshqa tibbiyot muassasalariga tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish;
- kasalliklarning, eng avvalo, yuqumli va virusli kasalliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlarini hamda ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- samarali sanitariya-epidemiologiya nazoratini ta'minlash;
- bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatishda diagnostika va davolash standartlarini joriy etish, shuningdek tuman (shahar) tibbiyot muassasalari tomonidan ularga rioya etilishini nazorat qilish;
- aholi o'rtasida, oilada tibbiy madaniyatni oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ishlarini tashkil etish;
- tibbiyot kadrlarini joy-joyiga qo'yish, ulardan oqilona foydalanish, ularning malakasini oshirish hamda ularni tarbiyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- tuman (shahar) sog'liqni saqlash muassasalarini prognozlashtirish, moliyalashtirish va ularning moddiy-texnika ta'minotini tashkil qilish.

Xulosa va takliflar

Sog'liqni saqlash tizimining boshqa sohalardan farqli tomoni shundan iboratki, undan insonlar birlamchi iste'mol sifatida foydalanadi. Boshqacha qilib aytganda tani og'riq sezgan har qanday insonni ko'ngliga na egulik, na kiyim-kechak, na orzu-istak sig'adi, na ishida unum-u hayotida hotirjamlik bo'ladi. SHundan kelib chiqqan holatda, ne'matlar ichida eng ulug'i bo'lgan inson hayoti va salomatligini himoyachilari faoliyat yuritadigan ushbu sohani har tomonlama rivojlantirish, zamonaviy texnik-uskunalar bilan jihozlash, hamda sohani muntazam zamon talabiga moslab borishni kafolatlovchi huquqiy asos ham yaratilib kelinmoqda.

Bundan tashqari 2023 yilda Prezidentimiz tomonidan aholi tomonidan sog'liqni

saqlash tizimiga ortib borayotagan talabni inobatga olgan holda, ushbu sohada xususiy sektorning o'rnini yanada oshirish nazarda tutuvchi qonun qabul qilinib, ushbu qonunga ko'ra, xatto xususiy sektorda ham daromad olish barobarida, aholini yordamga muhtoj qatlamini qo'llab quvvatlashga qaratilayotganligini qarordan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkin.

Aytish joizki, avvalo hozirgi kunda tajribada bo'lib turgan joriy bemorlarning soniga qarab moliyalashtirish tizimini o'tish maqsadga muvofiq. Zero, amaldagi tizim bo'yicha har doim ham shifoxonalardagi o'rinlar soni bilan ularda davolanayotgan bemorlar soni mos bo'lavermaydi va ba'zan mablag'larning etishmaslik yoki ortiqchalik holatlari vujudga keladi. Joriy bemorlar soniga qarab moliyalashtirishda esa, byudjet mablag'larining manzilliligi yanada ortadi va xizmat ko'rsatish sifati ham o'sadi. Boisi bunda mablag'lar aynan bemorning ehtiyojlaridan kelib chiqib yo'naltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018 y
2. Кабанова, Н. А. (2006). Государственная экономическая политика по формированию и использованию человеческих ресурсов. Москва.
3. Оганесян, А. А. (2015). Реформы здравоохранения Франции как части общественного сектора экономики.
4. Дробозина, Л. А., Окунева, Л. П., & Андросова, Л. Д. (2000). Финансы. Денежное обращение. Кредит/ЛА Дробозина, ЛП Окунева.
5. Всемирная организация здравоохранения. (2006). Работа на благо здоровья: Познакомьтесь со Всемирной организацией здравоохранения.. Всемирная организация здравоохранения. <https://apps.who.int/iris/handle/10665/97518>
6. Джунусова Д.А. Совершенствование механизма финансирования медицинских услуг в системе охраны здоровья населения Республики Казахстан. Автореф. дисс. к.э.н. – Алматы: 2008. – с. 26.
7. Райимбердиева О.Р. Соғлиқни сақлаш муассасаларини молиявий таъминлашни ташкил қилиш: и.ф.н. ... дис. автореф. – Тошкент, 2001. – 21 б.
8. Қосимова Г.А. Ижтимоий-маданий соҳаларни ривожлантиришда бюджет сиёсатининг роли (Ўзбекистон Республикаси мисолида): и.ф.н. ... дис. автореф. – Тошкент, 2001. – 22 б
9. Султонова А.Ў. Соғлиқни сақлашни бозор муносабатлари орқали тартибга солишнинг халқаро амалиёти: и.ф.н. ... дис. автореф. – Тошкент, 2001. – 21 б
10. Ражабов Ў.Д. Ижтимоий хизматлар соҳасида хусусий тадбиркорликни ривожлантиришнинг назарий жиҳатлари ва устувор йўналишлари: и.ф.н. ... дис. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.
11. Туртаев М.Р. Маркетинг медицинских услуг в условиях рыночных реформ и пути его совершенствования: автореф. дис. ... к.э.н. – Тошкент, 2005. – 23 с.